



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

bilan tamomlab, O‘zbekiston davlat konservatoriyasining tayanch doktoranturasida (PHD) erkin izlanuvchisi sifatida o‘qishni tamomladi. Hozirgi kunda u O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida “Yosh ijodkorlar bilan ishlash sho‘basi” bosh mutaxassisi lavozimida ishlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аббарова М. Узбекская композиторская мысль о проблемах современного музыкального творчества. Азербайджан, Баку. 2022. 133-136 с.
2. Kutlichurina A. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston kompozitorlari ijodining an’anaviy va zamonaviy musiqiy tafakkuri faktura kesimida// San’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2022, 47 b.
3. Сафаров А. Особенности процесса синтеза Западной формы и Восточного мелоса на примере анализа авторских вариаций на тему узбекской народной песни “Хай бола, бола” Ж. Проблемы науки и современного образования. Россия, - Москва. 2020.

QORAQALPOQ XALQ MILLIY MEROSI BAXSHICHILIK SAN’ATINING RIVOJIDA G.TILEUMURATOVNING TUTGAN O‘RNI

T.Q. DAULETBAYEV,

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali
“Umumkasbiy va ishtimoiy fanlar” kafedrasini mudiri.*

Annotasiya. Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalq milliy merosi baxshichilik san’ati rivojlanishi va G.Tileumuratovning ijodi va uning baxshichilik san’atiga qo‘shgan hissasi haqida bayon etilgan

Kalit so‘zlari: Baxshi, baxshichilik, musiqa, milliy meros, milliy asbob, ansambl, “Muqalles” ansambli, dutor, dutor sozandachiligi.

Xalqimizning milliy o‘zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an’ana va urf-odatlarini o‘zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san’ati atoqli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o‘tib kelmoqda. Mustaqillik yillarida milliy o‘zligimiz qayta tiklanib, so‘nggi yillarda esa bu madaniy va moddiy merosimiz butun dunyoga keng tarannum etilmoqda. O‘zbekistonning XIX-XX asrlar madaniyati tarixida ko‘plab baxshi shoirlar nomlari qayd etilib, ularning ko‘plariga haykallar o‘rnatilgan, kuylagan doston, epos, termalari tasma, plastinka va to‘plamlarda nashr etilgan. Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev PQ-4320-son Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori Qoraqalpoq milliy baxshichilik san’atining rivojlanishiga salmoqli ta’sirini o‘tkizib kelmoqda.

Qoraqalpoq xalq milliy baxshichilik san’ati XV-XVI asrlarda paydo bo‘lib, shu davrgacha ikkiga – Musa va Su’yew baxshichilik maktabi bo‘lib o‘rganilgan. Lekin so‘nggi yillarga kelib ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasida baxshichilik maktabi Aqimbet, G‘aripniyaz, Arzi va Qutim baxshichilik maktablariga bo‘linib o‘rganilmoqda.

Aqimbet baxshining shogirdi Musa, Musa baxshining shogirdi Tileumurat, Tileumurat baxshining o‘g‘li Genjebay Tileumuratov 1929-yil Mo‘ynoq tumanida

baxshilar oilasida dunyoga keldi. Kichkina Genjebay 7 yoshidan dutor chalib, qushiq aytishga qiziqib, otasining hunarini 7 yoshidan boshlab o'rgana boshlaydi. Unga Esjan, Japaq, Qurbaniyaz baxshilar, Qo'ng'iroqli baxshilar Orinbay va Jangabaylarning otasi Tileumurat bilan birga qo'shiq va doston ijo qilishlari katta tasir o'tkazdi. Genjebay otasidan "Yusip-Axmet"; "Qirmandali"; "Sayatxan-Xamra" dostonlari, "Láy-láy"; "Jeti asırım"; "Ala qayıs"; "Adıńnan"; "Arıwxan"; "Dásnama"; "Sıy perde"; "Mińtúmen" kuylarini o'rganadi. Buyuk baxshi va xalq kompozitori Musa baxshining "Musa sen yarı"; "Musa naması"; "Sen yar qal endi"; "Sanalı geldi" "Demir donlı", Suyeu baxshining "Qosha dás" "Merteuil" "Gór qız" "Iranıy", Orinbay baxshining "Shirwanı qater"; "Zar-latma"; "Sharqı shuwar" kuylarini o'rganib, ushbu asarlarni maromiga etkazib, yurakdan ijro etishga odatlangan. U qoraqalpoq xalq qo'shiqlarining mohir ijrochisi sifatida ko'plab davlat tadbirlarida va chet davlatlarda o'tkazilgan madaniyat kunlarida ishtirok etadi.

1968-yili Tojikistonda o'tkazilgan O'zbek adabiyoti va san'ati kunlarida Qoraqalpoq xalq kuylarini ijro etadi. Shuningdek 1971-yili Ashqabotda o'kazilgan Turkman adabiyotining klassik shoiri Maqtumqulining 200 yillik yubileyida G.Tileumuratov shoirning ikki qo'shig'ishi yuksak darajada ijro etib ishtirokchilarda iliq ta'surot qoldirgan. Uning baxshichilik yo'lidagi fidoyi mehnatlarini munosib taqdirlash maqsadida 1969-yili "Qoraqalpaqstanga miyneti sińgen mádeniyat xizmetkeri"; 1977-yili "Qaraqalpaqstan xalıq baqsısı" unvonlari berildi.

"Muxalles" dutorchilar ansambli 1976-yili Qoraqalpoq xalq baxshisi, Berdaq nomidagi davlat mukofoti laureati, ustoz G.Tileumuratov tomonidan Qoraqalpoq g'iston teleradio kompaniyasi qoshidan tashkillashtiriladi va ansamblga boshchilik qildi. Bu ansambl dastlab besh sozanda va besh baxshidan iborat bo'lib, G.Tileumuratov, G.Baylepesov, Q.Dosjanov, gitjakchi K.Tinibaev va bolamonchi O.Asanovlar bo'ldi. Keyinchalik ansambl tarkibidagi sozanda va baxshilarning soni 12-15-18 kishigach kengayib bordi. G.Tileumuratov unutilib borayotgan "Miń túmen"; "Sıy perde"; "Dásnama"; "Demir donlı"; "Kepter"; "Zar-latma"; "Sharqı shuwar"; "Shirwan qáter" singari eski kuylarni qayta tiklagan va ansambl a'zolariga o'rgatgan.

1997-yili G.Tileumuratov olamdan o'tkanidan so'ng mart oyida shogirdi O'zbekiston xalq baxshisi G.Ótemuratov "Muxalles" ansambliga rahbar etib tayinlanadi. 2007-yili fevral oyida "Muxalles" ansambliga ustoz G.Tileumuratov nomi berildi.

Hozirgi kunga kelib ansambl repertuarida 100 dan ortiq qo'shiq va kuylar mavjud bo'lib milliy madaniyatimizni boyitib kelmoqda. Asrlar davomida shakillangan va avlotdan-avlotga me'ros bo'lib kelayotgan milliy musiqa, dasturiy qo'shiq ijrochiligi orqali xalqimiz, asosan yosh avlod oldida bebaho yuksak hurmat va havas tuyg'ularini shakllantirib, ularda milliy madaniyatimiz va qadriyatimizdan maqtanish tuyg'ularini saqlab qolishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan milliy baxshichilik san'atini saqlab qolishda, ushbu noyob san'atni asrab-avaylash

va rivojlantirishda G.Tileumuratov va “Muqalles” dutorchilar ansamblining o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.05.2019 yildagi PQ-4320-son. <https://lex.uz/docs/-4380951>
2. Allanazarov D. “Qaraqalpaq xalq sazları” Nókis-2002.
3. Nadirova A. “Qaraqalpaq muzika tarixi”; “Sano-standart” nashri Toshkent-2018.
4. Ayımbetov Q. “Xalq danalığı”; “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
5. “Qaraqalpaq folklori” 5-tom “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
6. Dauletbaev T. Cholg‘u asboblarini o‘rgatishda nota savodini oshirish // Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – T., 2023. №. 3. – C. 31-33.

FARG‘ONA VODIYSI QIRG‘IZLARI MADANIYATIDA QIRG‘IZ VA O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINING O‘RNI

Bahrom INATULLAYEV,

Namangan davlat universiteti

Musiqqa ta’limi va madaniyatshunoslik kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida istiqomat qilayotgan qirg‘izlar kundalik turmush tarzida o‘zbek va qirg‘iz xalq qo‘shiqlari va termalaridan foylanishi atroflicha tahlil etilgan bo‘lib, ijodiy namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, qirg‘iz etnosi, xalq qo‘shiqlari, termalar, gap-gashtak, ansambl, marosimlar, ijro san’ati.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach esa vatan tarixini, jumladan Farg‘ona vodiysini tarixiy-etnografik jihatdan o‘rganishni yangi bosqichi boshlandi. Har bir hudud aholisini shakllanishi, turli etnik jamoalarni turmush tarzi va madaniyatidagi etnik xususiyatlar bir qator omillar ta’sirida, birinchi galda tabiiy-geografik omil ta’sirida qaror topadi.

Farg‘ona vodiysining tabiiy-geografik tavsifiga to‘xtalganda avvalo, quyidagi ma'lumotlarni keltirib o‘tish joizki, Farg‘ona tog‘lar orasida joylashgan vodiylar. Uning hududi shimoliy-g‘arbda Qurama va Chotqol tizmalari, shimoliy-sharqdan esa Farg‘ona, Janubiy Oloy va qisman Turkiston tizmalari bilan o‘ralgan. Faqat g‘arbda tog‘ tizmalarining pastlashgan joyidan Mirzacho‘lga chiqiladi. Kengligi 8-10 km bo‘lgan bu oraliq hudud shartli ravishda “Ho‘jand darvozasi” nomi bilan yuritiladi.

Farg‘ona vodiysining umumiy maydoni tog‘larni qo‘shib xisoblanganda 22,2 ming km.kv.ni tashkil qiladi. Bodomsimon shakldagi vodiyni uzunligi deyarli 300 km va enining eng keng joyi 170 km.ga teng.

Farg‘ona vodiysi hududida O‘zbekistonning uchta (Andijon, Namangan va Farg‘ona) Tojikistonning bitta (So‘g‘d), Qirg‘izistonning ham uchta (O‘sh, Jalolobod va Botkent) ma'muriy viloyatlari joylashgan. [1.-B.7]

Farg‘ona vodiysi aholisining etnik xilma xilligi turmush tarzi va madaniy hayotda bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Boisi Farg‘ona vodiysida istiqomat qilayotgan xar bir etnik vakillarning o‘ziga xos madaniyati va turmush tarzi bor.